



SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA MILLIY  
XARAKTER SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

*Xodjamurodova Sevinch Nuriddinovna*

*Termiz davlat universiteti talabasi*

*e-mail: [sevinchnuriddinovna@gmail.com](mailto:sevinchnuriddinovna@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev hikoyanavislik mahoratining o'ziga xos jihatlari, xususan, milliy xarakter shakllanishining ijtimoiy-psixologik asoslari tadqiq etiladi. Adib asarlaridagi qahramonlar shunchaki badiiy to'qima emas, balki muayyan ijtimoiy muhit va tarixiy sharoit mahsuli ekanligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada yozuvchining "Oltin baliq", "O'rkach", "Tabassum" kabi hikoyalari misolida o'zbek xarakteriga xos bo'lgan or-nomus, mardlik, ziddiyatli ichki dunyo va milliy mentalitetning badiiy in'ikosi ochib berilgan. Shuningdek, qahramonlar psixologiyasidagi evrilishlar va ularning jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liqligi masalasiga alohida urg'u beriladi.

**Kalit so'zlar:** Shukur Xolmirzayev, milliy xarakter, ijtimoiy-psixologizm, badiiy mahorat, realizm, milliy mentalitet, konflikt, inson ruhiyati, badiiy detal, an'ana va zamonaviylik.

**Аннотация:** В данной статье исследуются специфические аспекты мастерства Шакура Холмирзаева как мастера рассказа, в частности, социально-психологические основы формирования национального характера. Научно анализируется тот факт, что герои произведений писателя являются не просто художественным вымыслом, а продуктом определенной социальной среды и исторических условий. На примере таких рассказов, как «Золотая рыба», «Горб», «Улыбка», раскрывается художественное отражение чести, мужества, противоречивого внутреннего мира и национального менталитета, присущих узбекскому характеру. Также особое внимание



уделяется психологическим трансформациям героев и их связи с социальными изменениями в обществе.

**Ключевые слова:** Шакур Холмирзаев, национальный характер, социально-психологизм, художественное мастерство, реализм, национальный менталитет, конфликт, психология человека, художественная деталь, традиция и современность.

**Abstract:** This article examines the specific aspects of the storytelling mastery of the People's Writer of Uzbekistan, Shukur Kholmirzayev, focusing on the socio-psychological foundations of the formation of national character. It scientifically analyzes how the characters in the writer's works are not merely artistic fictions but products of a specific social environment and historical conditions. Through stories such as "The Golden Fish," "The Hump," and "The Smile," the article reveals the artistic reflection of national mentality, dignity, courage, and the conflicting inner world inherent in the Uzbek character. Additionally, special emphasis is placed on the psychological transformations of the characters and their connection to social changes in society.

**Keywords:** Shukur Kholmirzayev, national character, socio-psychologism, artistic mastery, realism, national mentality, conflict, human psyche, artistic detail, tradition and modernity.

## Introduction:

### **Adabiyot va milliy g'oya kontekstida Shukur Xolmirzayev olami**

Badiiy adabiyot xalq ma'naviyatini shakllantiruvchi, uning tarixiy xotirasi va estetik idealini avloddan-avlodga bezavol yetkazuvchi eng qudratli ijtimoiy-ma'naviy vositadir. U insonni shunchaki tashqi voqelik bilan tanishtirib qolmay, balki uning ongu shuurida milliy o'zlik, axloqiy mezonlar va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ularini mustahkamlaydi. Shu ma'noda, O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayevning boy ijodiy merosi, xususan, uning hikoyanavislik mahorati o'zbek milliy ruhini chuqur anglash va badiiy in'ikos etishda alohida strategik o'rin tutadi. Adibning ijodiy olamida milliy xarakter shunchaki yuzaki etnografik tasvir emas, balki murakkab hayotiy ziddiyatlar, ijtimoiy-siyosiy bosimlar, oilaviy muhit va



shaxsiy erk tanlovlari chorrahasida yuksaladigan, pishib yetiladigan jonli badiiy haqiqatdir<sup>1</sup>.

Xolmirzayev qahramonlari o'zining soddaligi ortiga yashiringan teran falsafasi, mardligi, andishasi va g'ururi bilan o'zbek insonining asl fitratini namoyon etadi. Muallif "shafqatsiz realizm" tamoyillariga sodiq qolgan holda, milliy xarakterni ideallashtirishdan qochadi va inson ruhiyatining eng chigallashgan nuqtalarini mahorat bilan ochib beradi. Mazkur tadqiqotning bosh maqsadi — milliy xarakter shakllanishiga bevosita ta'sir etuvchi ijtimoiy va psixologik omillarni adibning fundamental hikoyalari misolida tizimli tahlil qilish hamda badiiy mahorat qirralarini ilmiy asoslashdir. Bunday konseptual yondashuv nafaqat adib ijodini o'rganish, balki milliy adabiyotning bugungi ma'naviy yangilanish jarayonlaridagi o'rnini qayta baholashga xizmat qiladi. Zero, Xolmirzayev yaratgan obrazlar silsilasi zamon va makon o'zgarishlariga qaramay, o'zbek xalqining ma'naviy immunitetini va o'zgarimas ichki dunyosini haqqoniy, hayotiy bo'yoqlarda aks ettiruvchi o'ziga xos "ma'naviy ko'zgu" vazifasini o'taydi.

**Shukur Xolmirzayev: Milliy xarakter va "Boysun" badiiy dunyosining falsafiy talqini:** O'zbek adabiyoti tarixida Shukur Xolmirzayev (1940–2005) nafaqat iste'dodli hikoyanavis, balki milliy o'zlikni badiiy tahlil qilish orqali xalq ma'naviyatini yuksaltiruvchi chinakam g'oyalar tarbiyachisi sifatida namoyon bo'ladi. Adibning nasriy merosi hayotiy tafsilotlarning favqulodda aniqligi, nutqiy tabiiylik va ruhiy kuzatuvlarning o'tkirligi bilan ajralib turadi. Xolmirzayev hikoyalarida voqelik tizimi, odatda, sirtqi qatlamda o'ta sodda va hayotiy ko'rinsada, uning zamiridagi ma'no qatlamlari insoniyatning fundamental muammolariga borib taqaladi. Ana shu chuqurlik va hayotiy haqiqatga bo'lgan sadoqat oddiy qishloq kishisi obrazini umumlashgan milliy xarakter darajasiga ko'tarishga xizmat qiladi. Yozuvchi ijodining o'zagini tashkil etuvchi Boysun va boysunliklar hayoti shunchaki jug'rofiy tushuncha emas, balki adibning butun ijodiy metodologiyasini belgilovchi ma'naviy metatindir. Boysun tabiati, uning asriy urf-odatlarini, tog'

<sup>1</sup> Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. 42-b.



odamlarining qat'iyatli fe'l-atvori va hayotning keskin burilishlariga munosabati Xolmirzayev asarlarida realistik aniqlik va yuksak badiiyat bilan muhrlangan. Natijada o'quvchi quruq etnografik manzaralar bilan emas, balki qon-qoniga milliy g'urur, andisha va kurashchanlik singigan tirik shaxslar olami bilan yuzlashadi.

Adibning "shafqatsiz realizm" tamoyili milliy xarakterni tasvirlashda yangicha estetik sifatni yuzaga keltirdi. U o'zbek insonini faqat ijobiy bo'yoqlarda, silliqqlangan obraz sifatida ko'rsatishdan qat'iyon voz kechdi. Xolmirzayev uchun milliy g'oya — bu balandparvoz shiorlar emas, balki insonning o'z o'zligi, vijdoni va tabiati oldidagi mas'uliyatidir. Masalan, uning "O'rkach", "Tabassum", "Oltin baliq" kabi turkum hikoyalarida qahramonlar ijtimoiy muhitning og'ir sinovlarida, ma'naviy inqirozlar va vijdon azoblari chig'irig'ida shakllanadi. Muallif<sup>2</sup> milliy xarakterning shakllanish asoslarini qidirar ekan, buni jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar va shaxs psixologiyasining o'zaro dialektik aloqadorligida ko'radi. Uning badiiy dunyosida tabiat bilan uyg'unlik milliy xarakterning ajralmas bo'lagi hisoblanadi; tabiatga xiyonat — millatning o'z ildiziga, o'z ma'naviyatiga xiyonati sifatida talqin etiladi. Shukur Xolmirzayev hikoyalaridagi har bir badiiy detal, har bir dialog qahramonning ijtimoiy-psixologik portretini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu o'z navbatida kitobxonda milliy qadriyatlarga bo'lgan ehtiromni uyg'otadi. Adibning "Adabiy o'ylar"ida ta'kidlanganidek, yozuvchi xalqning dardini o'ziniki deb bilmas ekan, u yaratgan karakterlar hech qachon millat mulkiga aylanmaydi. Shuning uchun ham Xolmirzayev prozasidagi milliy ruh va o'zbekona mentalitet tahlili bugungi globallashuv davrida ma'naviy immunitetni shakllantirishda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Uning asarlari zamonlar osha o'zining dolzarbligini yo'qotmay, o'zbek milliy qiyofasini butun murakkabligi va jozibasi bilan dunyoga tanitishda davom etmoqda.

## Methods.

### **Shukur Xolmirzayev Prozasida Milliy Borliq va Ruhiyatning Badiiy**

**Tahlili:** Shukur Xolmirzayev ijodiy laboratoriyasining o'ziga xosligi shundaki, unda

<sup>2</sup> Xolmirzayev Sh. Adabiy o'ylar. – Toshkent: Yozuvchi, 1997. 18-b. o'rkachi



Boysun manzarasi shunchaki fon yoki dekoratsiya emas, balki asarning faol qahramoniga, inson ruhiyatining ajralmas bo'lagiga aylanadi. Adib nazarida tabiat va inson — bir-birini to'ldiruvchi, bir-birining mohiyatini ochib beruvchi ekzistensial kuchlardir. Boysunning asov tog'lari, sershovqin soylari va keng adirlari yozuvchi qahramonlarining fe'l-atvoridagi qat'iyat, mag'rurlik va matonatni shakllantirgan tabiiy omildir. Xolmirzayev tabiat tasviri orqali insonning ichki olamidagi evrilishlarni ko'rsatib beradi: tabiatdagi muvozanatning buzilishi adib asarlarida insoniyat ma'naviyatidagi inqirozning ramziy ifodasi sifatida talqin etiladi. Bu esa o'z navbatida yozuvchi uslubida realistik tafsilotlarning naqadar muhimligini ko'rsatadi. Uning hikoyalarida oddiy hayot unsurlari — kundalik turmush buyumlari, cho'ponning tayoqlari, otning kishnashi yoki oddiygina bodom gulining ochilishi — milliy ruhni ochib beradigan qudratli badiiy vositaga aylanadi. Adib har bir detalga o'ta sinchkovlik bilan yondashadi; u tasvirlayotgan detal shunchaki ashyo emas, balki qahramonning ijtimoiy kelib chiqishi, ruhiy holati va milliy mentalitetini o'zida tashuvchi "jonli hujjat"dir.

Xolmirzayev ijodining "shafqatsiz realizm" deb nom olgan yo'nalishi o'zbek adabiyotiga hayotning og'riqli tomonlarini yashirmay, bor bo'y-basti bilan ko'rsatish an'anasini olib kirdi. Uning asarlarida badiiy haqiqat har qanday mafkuraviy qoliplardan ustun turadi. Adib jamiyatdagi illatlarni, inson fe'lidagi ziddiyatlarni va hayotning murakkab chorrahalarini ochiq-oydin tasvirlash orqali kitobxonni hushyorlikka chorlaydi. Bu realizm shunchaki tasviriy uslub emas, balki xalqning dardi bilan yashash, haqiqatni aytishdan qo'rqmaslik jasoratidir. Ayniqsa, adibning so'nggi yillarda yozilgan asarlarida millat qiyofasini saqlab qolish, ma'naviy qadriyatlarning yemirilishiga qarshi isyon yaqqol seziladi. Ijodidagi keskinlik, ichki ziddiyat va hayotiy haqiqatga mutloq sodiqlik Shukur Xolmirzayev hikoyalarini zamonaviy o'zbek nasrining eng yuqori va muhim bosqichiga aylantirdi. U yaratgan "Boysun dunyosi" — bu aslida o'zbek millatining ma'naviy genofondi, uning mag'rur va bosiq xarakterining badiiy modelidir. Shuning uchun ham uning merosi bugungi kunda milliy o'zlikni anglash va yangi avlodni milliy ruhda tarbiyalashda tengsiz manba bo'lib xizmat qiladi. Adib qalamga olgan har bir taqdir, har bir



ijtimoiy to'qnashuv o'quvchini nafaqat asar voqealari ustida, balki o'zining kimligi va kelajagi haqida ham chuqur mushohada yuritishga majbur qiladi.

### **Shukur Xolmirzayev olami: Badiiy mantiq va milliy xarakter tadqiqi:**

Shukur Xolmirzayev hikoyanavisligidagi milliy xarakter muammosini o'rganish, avvalo, yozuvchi tanlagan hayotiy yo'l va badiiy uslubning o'zaro uyg'unligini anglashdan boshlanadi. Adib ijodini tahlil qilishda biz shunchaki tayyor qoliplarga tayanmay, balki asarning ichki qatlamlariga kirib borish, qahramonlarning har bir xatti-harakati zamiridagi ijtimoiy-psixologik sabablarni ochish yo'lini tanladik. Bu borada yozuvchining "Oltin baliq", "O'rkach", "Tabassum" va "Ot egasi" kabi o'ndan ortiq konseptual hikoyalari asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Bu asarlar shunchaki o'qish uchun emas, balki o'zbek milliy mentalitetining o'zgarmas ustunlarini o'zida saqlagan badiiy hujjatlar sifatida sinchiklab ko'zdan kechirildi. Xolmirzayevning har bir hikoyasi zamirida insonning o'z o'zligi, tabiati va ijtimoiy muhit bilan to'qnashuvi yotadi. Biz ushbu to'qnashuvlarni tahlil qilishda realistlik tasvir tamoyillariga tayanib, qahramonlar psixologiyasidagi evrilishlarni ularning yashash tarzi va ijtimoiy kelib chiqishi bilan bog'liq holda o'rgandik.

Adib uslubidagi eng muhim jihat — bu tafsilotlar orqali katta haqiqatlarni aytilish mahoratidir. Tadqiqot davomida hikoyalardagi har bir detal, xoh u qahramonning egnidagi juldur choponi bo'lsin, xoh u mingan seryal ot, milliy xarakterni yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita sifatida baholandi. Shukur Xolmirzayev o'zbek kishisini ideallashtirmaydi, uni bor nuqsonlari, ziddiyatlari va ichki isyonlari bilan birga tasvirlaydi. Biz ushbu "shafqatsiz realizm" unsurlarini tahlil qilar ekanmiz, yozuvchining maqsadini anglashga harakat qildik: u millatni qanday bo'lsa shundayligicha ko'rsatish orqali uning dardi va qudratini ochib beradi. Ayniqsa, Boysun manzaralari va u yerdagi odamlar hayoti orqali milliy ruhning eng qadimiy va o'zgarmas qirralari qidirildi. Tadqiqot jarayonida shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar, insonning o'z vijdoniga qarshi borolmasligi kabi holatlar qahramonlar taqdiri misolida tahlil qilindi.

Bu yondashuv bizga Shukur Xolmirzayev yaratgan obrazlar shunchaki adabiy qahramon emas, balki bugungi kun o'quvchisi uchun ham ma'naviy ko'zgu



ekanligini isbotlash imkonini beradi. Har bir hikoyadagi dialektal nutq shakllari, qahramonlarning o'ziga xos andishasi va mardligi ortida yashiringan falsafiy ma'nolar birma-bir ochib borildi. Shunday qilib, adibning ijodiy merosi orqali milliy xarakter shakllanishining ijtimoiy-psixologik asoslarini aniqlash, o'zbek adabiyotining naqadar hayotiy va teran ekanligini ko'rsatib beradi. Bu tahlillar orqali biz nafaqat yozuvchi mahoratini, balki millatimizning bugungi va ertangi kuni uchun muhim bo'lgan ma'naviy xulosalarni shakllantirishni maqsad qildik. Xolmirzayev qalamga olgan har bir taqdir, har bir ijtimoiy to'qnashuv o'quvchini o'zligini anglashga, milliy g'urur va insoniy qadr-qimmatni asrashga undashi bilan ham bugungi kun uchun g'oyat dolzarbdir.

## Results.

**Milliy xarakter va inson ruhiyati in'ikosi:** Shukur Xolmirzayev hikoyalarini sinchiklab kuzatgan odam bitta haqiqatga duch keladi: adib uchun milliy xarakter — bu quruq tushuncha emas, balki azoblanadigan, isyon qiladigan va o'zligini tish-tirnog'i bilan himoya qiladigan tirik inson fojiasidir. "O'rkach" hikoyasini olaylik. Undagi qahramon timsolida o'zbek kishisining "ichki tog'i" namoyon bo'ladi. Uning jismoniy nuqsoni — o'rkachi — asar kulminatsiyasida kutilmaganda uning eng katta ma'naviy ustuniga, bukilmas g'urur ramziga aylanadi.<sup>3</sup> Xolmirzayev bu yerda bir narsani isbotlaydi: milliy xarakter tashqi ko'rinishda emas, balki har qanday xo'rlik va kamsitishlar qarshisida ham insoniy qadrni baland tuta bilishda. Qahramonning o'sha "o'rkachi" aslida uning jamiyatdagi soxtaliklarga qarshi qalqonidir.

Adibning "shafqatsiz realizmi" kitobxonni ayab o'tirmaydi, uni achchiq haqiqat bilan yuzma-yuz qo'yadi. "Oltin baliq" hikoyasida inson nafsi va uning milliy fitratidan uzoqlashishi shunday usta san'atkorlik bilan chizilganki, unda har bir personaj o'zligini yo'qotish fojiasi bilan yuzlashadi.<sup>4</sup> Xolmirzayev o'zbekni aslo ideallashtirmaydi, uni "ko'kka ko'tarib" maqtamaydi. Aksincha, uni yerda, loyda, og'ir mehnat va ziddiyatlar ichida ko'rsatadi. Mana shu "yerga yaqinlik" — o'zbek

<sup>3</sup> Normatov U. Ijod sehri. – T.: Sharq, 2007.

<sup>4</sup> Xolmirzayev Sh. Oltin baliq. – Toshkent: Cho'lpon, 1987. 12-b.



xarakterining asl poydevoridir. "Ot egasi" yoki "Cho'loq turna"da tabiat shunchaki fon emas, balki qahramonning vijdon ko'zgusi bo'lib xizmat qiladi. Otning kishnashi yoki tog'ning haybati qahramonni hamisha o'z asliga, o'sha o'zgarms o'zbekona tabiatiga qaytishga undaydi.

Eng muhimi, Xolmirzayev hikoyalarida so'z shunchaki gap emas, balki xarakterning qon-tomiri. Uning qahramonlari tilidagi har bir keskin ibora, Boysun shevasiga xos har bir tahlidiy so'z personajning ijtimoiy-psixologik portretini to'ldiradi. Adib inson ruhiyatining eng og'riqli nuqtalarini titkilaydi va o'sha yerdan o'zbekona andishani, mardlikni va ba'zan tushunarsiz tuyulgan qaysarlikni topib chiqadi. Bu natijalar shuni tasdiqlaydi: Shukur Xolmirzayev yaratgan obrazlar silsilasi bugungi globallashuv to'foni oldida bizga kimligimizni eslatib turuvchi, milliy qiyofamizni yo'qotmaslikka chorlovchi ma'naviy istehkomdir. U yaratgan dunyo qanchalik murakkab bo'lsa, undagi milliy ruh shunchalik sofdur.

## Discussion.

### **Milliy xarakter va ijtimoiy muhit ziddiyati: Badiiy talqin tamoyillari**

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida milliy xarakter masalasini faqatgina o'tmish sadosi yoki etnografik tasvirlar yig'indisi deb qarash uning ijodiy ko'lamini cheklab qo'yadi. Zero, adib qahramonlari har doim muayyan ijtimoiy bosim va ma'naviy tanlov chorrahasida yashaydi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, yozuvchi uchun xarakter — bu insonning tashqi dunyo bilan to'qnashuvidagi aks sadosidir. Xususan, "O'rkach" yoki "Oltin baliq" kabi asarlarda o'zbek kishisining fe'l-atvori silliqanmay, bor ziddiyatlari bilan ko'rsatiladi. Bu qahramonlar o'zlarining xatolari, o'jizligi va ayni paytda o'sha o'jizlikni yenga oladigan ichki matonati bilan tirikdir. Xolmirzayev o'zbek insonini tabiatning bir bo'lagi sifatida tasvirlar ekan, uning xarakteridagi mardlik va andishani tog'lar haybati va sahro kengligi bilan qiyoslaydi. Bu esa milliy xarakterning naqadar qadimiy va mustahkam ildizlarga ega ekanligini anglatuvchi badiiy vositaga aylanadi.

Adib ijodidagi "shafqatsiz realizm" tamoyili milliy g'oyani balandparvoz gaplar orqali emas, balki hayotning og'riqli haqiqatlari orqali isbotlaydi. Inson



o'zligidan kechganda yoki nafs yo'liga kirganda, uning xarakteridagi milliy va insoniy qiyofa yemirilishini Xolmirzayev ayovsiz ko'rsatib beradi. Ammo aynan mana shu "shafqatsizlik" o'quvchida o'z o'zligini asrash, milliy g'ururni har qanday sharoitda ham saqlab qolish ehtiyojini uyg'otadi. Boysun manzaralari fonida kechadigan ruhiy kurashlar, qahramonlarning o'z vijdoni oldidagi hisobdorligi — bularning barchasi o'zbekona mentalitetning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik asosi hisoblanadi. Shukur Xolmirzayev yaratgan badiiy dunyo shuni isbotlaydiki, milliy xarakter — bu harakatdagi jarayon bo'lib, u hamisha o'zgarib turuvchi zamon va turg'un qadriyatlar o'rtasidagi oltin muvozanatni qidiradi.

Yozuvchining mahorati shundaki, u bitta kichik detal yoki birgina og'iz so'z orqali butun bir avlodning ruhiy holatini ochib bera oladi. Uning hikoyalaridagi muloqot madaniyati, qahramonlar orasidagi masofa va andisha tuyg'usi o'zbek xalqining ma'naviy genofondini tashkil etadi. Bu qadriyatlar bugungi globallashuv davrida ham o'z qimmatini yo'qotmagan, aksincha, milliy o'zlikni saqlab qolishda tayanadigan asosiy tayanch bo'lib xizmat qilmoqda. Shukur Xolmirzayev prozasidagi keskinlik va hayotiy haqiqatga sadoqat uning asarlarini nafaqat adabiyot faktiga, balki millatning ruhiy tarixini o'rganuvchi muhim manbaga aylantiradi. Aynan mana shu jihat adib yaratgan obrazlarning zamonlar osha yashab qolishini va yangi avlodlar uchun ham qadrlil bo'lishini ta'minlaydi.

### **Xulosa:**

**Millatning badiiy vijdoni va o'zgarimas qiyofasi:** Shukur Xolmirzayev ijodini, uning hikoyalaridagi milliy xarakter tizginlarini o'rganar ekanman, bir haqiqatga iymon keltirdim: adib bizga o'zbekni qanday bo'lsa, shundayligicha — bor nuqsoni, bor dardi va bor g'ururi bilan ko'rsatib bera olgan yagona san'atkordir. Tadqiqotim davomida shunga amin bo'ldimki, Shukur aka uchun milliy g'oya baland minbarlarda aytiladigan shior emas, balki "O'rkach"dagi Abdullaning or-nomusi, "Ot egasi"dagi qahramonning o'zligiga sadoqatidir.

Mening nazarimda, Xolmirzayev yaratgan xarakterlar — bu bugungi globallashuv to'foni oldida bizni asrab qoluvchi ma'naviy istehkomlardir. Adibning "shafqatsiz realizmi" orqali biz o'zbek kishisining ichki dunyosidagi eng nozik va



eng og'riqli nuqtalarni ko'rdik. U yaratgan Boysun dunyosi shunchaki jug'rofiy joy emas, balki millatning ma'naviy genofondi saqlanadigan muqaddas go'shadir. Xulosa qilib aytganda, Shukur Xolmirzayev hikoyalari orqali milliy xarakterni o'rganish — bu o'zligimizga, ildizimizga va asl tabiatimizga qaytish demakdir.

Ushbu izlanishlarim natijasida shuni angladimki, yozuvchi yaratgan obrazlar silsilasi zamonlar osha yashab qolaveradi. Chunki ular hayotning o'zidek achchiq va rostgo'y. Men uchun Shukur Xolmirzayev nomidagi stipendiyaga intilish shunchaki moddiy rag'bat emas, balki adib omonat qoldirgan o'sha "milliy ruh" va "badiiy haqiqat" bayrog'ini munosib ko'tarib yurish mas'uliyatidir. Zero, Shukur aka aytganidek, haqiqiy adabiyot bor joyda millat o'lmaydi, uning xarakteri esa hamisha mag'rur va bukilmas bo'lib qolaveradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xolmirzayev Sh. **Saylanma**. (Uch jildlik). 1-jild: Hikoyalar. – Toshkent: "Sharq" NMAK, 2003. – 448 b.
2. Xolmirzayev Sh. **Bodom qishda gulladi**. (Hikoyalar). – Toshkent: "Adabiyot va san'at", 1986.
3. Xolmirzayev Sh. **Oltin baliq**. (Hikoyalar va qissalar). – Toshkent: "Cho'lpon", 1987.
4. Xolmirzayev Sh. **Adabiy o'ylar**. (Adabiy-tanqidiy maqolalar). – Toshkent: "Yozuvchi", 1997.
5. Normatov U. **Ijod sehri**. – Toshkent: "Sharq", 2007. (Shukur Xolmirzayev ijodiga bag'ishlangan boblar).
6. Sharafiddinov O. **Ijodni anglash baxti**. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2004.
7. Yoqubov I. **Badiiy psixologizm va zamonaviy o'zbek nasri**. – Toshkent: "Fan", 2004.
8. Quronov D. **Adabiyotshunoslikka kirish**. – Toshkent: "Akademnashr", 2007.

## Davriy nashrlar va internet resurslari:

9. Normatov U. **"Shukur Xolmirzayev shiddati"**. *"O'zbekiston adabiyoti va san'ati"* gazetasi, 2010-yil, 12-son.



10. **Ziyouz.uz portali:** "Shukur Xolmirzayev (1940-2005)" bo'limi. [Elektron resurs]. URL: [n.ziyouz.com](http://n.ziyouz.com)
11. **Kh-davron.uz (Xurshid Davron kutubxonasi):** "Shukur Xolmirzayev haqida zamondoshlari". [Elektron resurs]. URL: [kh-davron.uz](http://kh-davron.uz)
12. **Kitob.uz (Milliy kutubxona portali):** Adibning raqamlashtirilgan asarlari bazasi.